Bosimni o'lchash asboblari ishlash printsiptiga qarabquyidagi usullarga bo'linadi:

1. Suyuqlikli;
2. Prujinali (deformatsion);
3. YUkporshenli;
4. Elektrik.

Suyuqlikmanometrlariniishlashprintsipiolchanayotganbosimnisuyuqliku stunibosimibilanmuvozanatlashiga asoslangan




Rasm-14.

Prujinali manometrlarning ishlashi o`lchanayotgan bosim ta`sirida maxsus sezgir elastik prujinaning deformatsiyalanishiga asoslangan.

Qo`llanilayotgan sezgir elementi turiga qarab, trubasimon, membranali, silbfonli prujinali manometrlar mavjud.


Trubasimon prujinali manometrlar (Rasm-52) texnikada ko`p ishlatiladi. Ularda, ellips kesim yuzali aylana yoyi bo`yicha egilgan trubka (1) bir uchi o`lchov asbobi asosiga (ushlagich 2) maxkamlangan bo`lib, ikkinchi erkin uchi tishli sektor orqali strelkaga ulangan. Trubka ichidagi bosimning o`zgarishi trubaning elleptik kesim yuzasini aylana ko`rinishiga o`tishiga sabab bo`lib, trubaning bikirligini (uprugost`y) o`zgarishiga olib keladi, bu esa trubaning deformatsiyalanishiga teskari ta`sir ko`rsatadi.

Trubaning deformatsiyalanishi bosim hosil qilayotgan deformatsiya kuchi, trubaning aks ta`sir kuchi (trubaning bikirligi) bilan tenglashguncha davom etadi. Bunda trubaning erkin uchi tishli sektor orqali strelkani ma`lum bir burchakga buradi.



Rasm-15.

Trubasimon prujinali manometrlarning yuqoridagi konstruksiyasi bir o`ramli bo`lib, texnikada ko`p o`ramli manometrlar ham ishlatiladi (rasm 53).



Rasm-16.

54-rasmda elektr kontaktli manometrning elektr sxemasi keltirilgan.

Elektr kontaktli manometrlarda shkalaning o'lganayotgan bosimning pastki ($P_{\min}$) vayuqori ($P_{\max}$) qiymatlariga mos nuqtalariga kontaktlar o'rnatilgan bo'lib, manometr strelkasi shu qiymatlarga etganda kontaktlar ulanadi va rele R_1 ishlab o'zining kontaktlari orqali signal lampochkalarini yoqadi.

Ishlabchiqarishda quyidagi oddiy asboblari ishlatiladi:


Oddiy joyida nazorat qilishga mo'ljallangan asboblari: OBM; OBV; OBMV.

Masofaga uzatib nazorat qilishga mo'ljallangan asboblari:

MP-P2, MP-E2 (0 dan 40; 0-60; 0-100 kgs/sm kv).


MP-P3, MP-E3 (0-160; 0-250; 0-400 kgs/sm kv).

MP-P4, MP-E4 (0-600; 0-1000 kgs/sm kv) vaboshqalar.



Rasm-17.

Mebranali manometrlar kichik bosimlarni o'lchashga ishlatiladi. Ularning sezgir elementlari gofrlangan membrana, membranali quti va membranali bloklar ko'rinishida tayyorlangan bo'lishi mumkin. Odatdabular manometrlar kichik bosimlarni o'lchashga ishlatiladi (rasm-18).




Rasm-18.

Silfonli manometrlarning sezgir elementisilfon deb nomlanadiganhalqasimon gofrli yupqatsilindrdevordan tashkil topgan bo`lib, odatda u latun yoki bronzadan tayyorlanadi. Silfonli manometrlar kichik va o`rtabosimlarni o`lchashda ishlatiladi.

YUk porshenli manometrlar ishlash printsipisilindrdaerkin harakat qilayotgan porshengabosimi o`lchanayotgan muxit xosil qilayotgan kuchni, kolibrlangan yukning og`irligi xosil qilayotgan kuchbilan muvozanatlashishigaasoslangan (Rasm-56).

Bu manometrlar texnik manometrlarni tekshirishga ishlatiladi.



Rasm-19.

Ishlatilgan tayanch so`z va iboralar

1. Termoelektrik effekt – ikki har xil jinsli o`tkazgichlar ulangan kovsharlari haroratigaqarabzanjirdae.yu.k. hosilbo`lish xodisasi.
2. Termojuft – ikki har xil o`tkazgichdan tashkil topgan yopiqzanjir.
3. Termoe.yu.k. – harorat ta`sirida termojuft zanjiridahosil bo`luvchi e.yu.k.
4. Millivol`tmeter – kichik kuchlanishlarni o`lchovchi asbob.
5. Potentsiometr – termoe.yu.k. ni o`lchovchi asbob.

6. Reoxord - surgichorqalik qarshiligi o`zgaradigan reostat.
7. Nul-galʼvonometr – zanjirdan o`tayotgan tokni va uning yo`nalishini ko`rsatuvchi o`lchov asbobi.
8. Diagramma - ko`rsatkichni qiymatini kun davomida yozibboriluvchi aylana shaklidagi yoki lentali qog`oz.
9. Linza - kuchaytiruvchi oyna.
10. Filʼtr - ma`lumrangdagihavo spektrinio`tkazuvchi oyna.
11. Bosim - kuchniyuzaga ta`siri.
12. Barometrikbosim - atmosferadagihavo ustuniningbosimi.
13. Ortiqcha bosim - barometrikbosimdan ortiqcha bosim.
14. Absolyutbosim - barometrikdanfarqlanuvchi - katta yokikichik (butun) bosim.
15. Vakuummetr - barometrikdankichikbosimnio`lchovchi asbob.
16. Tyagomer - kichikvakuumnio`lchaydigan asbob.
17. Difmanometr - ikkibosim orasidagifarqnio`lchaydigan asbob.
18. Deformatsionmanometr – sezgirelementideformatsiyalanishiga asoslanibbosimnio`lchashga mo`ljallangan asbob.
19. Burdontrubkasi - kesimyuzasiellipsshaklida bo`lib, bosimo`lchashga mo`ljallangantrubka.
20. Membrana – kichikbosimniqabulqilib, o`lchashga yordamberadiganmaxsusmoslama.
21. Silʼfon - yontomonigofralikqilibishlanganbosimo`lchashga mo`ljallangantsilindrikkorobka.
22. Elektrokontaktmanometr - kontaktli, bosimnichegara qiymatlarinisignallashga mo`ljallanganmanometr.


Nazoratsavollari:

1. Termoelektrikpirometrlar.
2. Termopara yordamida haroratnio`lchash.
3. Potentsiometriko`lchashusuli.
4. Elektronpotentsiometrlar, KSP-3.
5. Nurlanuvchipirometrlar.
6. Absolyutva barometrikbosim.
7. Deformatsionmanometrlar.
8. Membranalimanometrlar.
9. Elektrokontaktmanometrlar.
10. Yukporshenlimanometrlarningishlashinimaga asoslangan?

Satx to'g'risida informatsiya olish mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi (2 soat).

Suyuqlik va sepiluvchi materialning satxini o'lchashdan maqsad, ma'lum sig'imdagi idish yoki texnologik jarayonni bajaradigan ishlab chiqarish apparatidagi modda miqdori to'g'risida axborot olishdir.


Texnikada turli xil satxni o'lchash usullari ishlatiladi:



Rasm-20.


Ko'rsatkichli shishalar. Ishlashi o'zaro ulangan idishlar qonuniyatiga asoslangan (rasm-20).

Qalqovuchli satx o'lchagichlar. Ularning ishlashi qalqovuchga ta'sir qilayotgan suyuqlikning ko'tarish kuchi bilan qalqovuch og'irligini muvozanatlashishiga asoslangan. Qalqib turuvchi (rasm-21) va suyuqlikga cho'kib turuvchi (rasm-22) qalqovuchli o'lchagichlar mavjud.



Rasm-21

Qalqovuchli (buyok) satx o'lchagich.



Ras22.

- 1-qalqovuch
- 2-aksta`sirsilbfoni
- 3-4-mexaniquva gidravliktinchlantirgich
- 5-xavo kuchaytirgichi
- 6- soplo - zaslonka


Ob`ektdagisatxningo`zgarishiqalqovuchga ta`sir qilayotganko`tarish (Arximedkuchi) kuchinio`zgarishiga sababbo`lib, bukuchrichaglar orqalizaslonkanisoploga nisbatan xolatinio`zgartiradi. Buesapnevmo signalo`zgartirgichchiqishidagisiqilgan xavo bosiminasatx o`zgarishiga proporsionalravishda o`zgarishiga olibkeladi.

Elektrsax **o`lchagichlaridasatxnio`lchashda** muxitningeletrko`rsatkichlarielektrsag`imi (rasm-)yokielektro`tkazuvchanligidan (rasm-69) foydalaniladi.

E1 – suyuqlikichigao`rnatilganelektrodi; E2 – xalkasimonelektrod; K – rele.


Elektrsag`imisatx o`lchagichlariyordamida satxniko`priksxemalariyordamida o`lchabborishva rezonanssxemalariyordamida signallashmumkin.

Elektro`tkazuvchanliksatx o`lchagichlarida (rasm-23), muxitningelekt



Rasm-23.

o`tkazuvchanlik xossasidan foydalanilib, satxni kerakli chegara qiymatlarini signallashga ishlatiladi.



Rasm –24.

1 – izolyator; 2 – kamaytiruvchi transformator; 3 – rele;


4 – signal lampasi; 5 – kontakt rele; 6 – elektrodlar.

Suyuqlik satxi elektrod(lar)ga (6) etganda elektrod(lar) orqali zanjirdan elektr toki o'tadi. Rele 3 ishlab kontakt 5 ulanadi va signal lampasi yonib satxni chegera qiymatga kelganini ko'rsatadi.

Radioizotop satx o'lchagichlarning ishlash printsipti satxi o'lchanayotgan muxitdan o'tayotgan γ -nurlarning energiyasini yutilishiga asoslangan.


Gidrostatik satx o'lchagichlar ishlash printsipti suyuqlik satxini o'zgarishini suyuqlik ustuni bosimini o'lchash yo'li bilan aniqlashga asoslangan. Gidrostatik satx o'lchagichlar, difmanometrik vap'ezometrik turlarga bo'linadilar.

P'ezometrik satx o'lchagichlar yordamida suyuqlik satxini o'lchash muxitga tushirilgan p'ezometrik trubadagi siqilgan xavobosimini suyuqlik ustuni bosimi bilan bir xil o'zgarishiga asoslangan (rasm-71).



Rasm -25.

Difmanometrik gidrostatik satx o'lchash usulida satxi o'lchanayotgan obektning pastki nuqtasi difmanometrning o'lchash kamerasiga ulanadi (rasm-72).



Rasm 26.

Difmanometrning ikkinchi kamerasiga nulga rostlovchi idish ulanadi. Bu idishdagi suyuqlikning satxi ob'ektdagi suyuqlik satxining nul qiymatiga sozlanadi. Suyuqlik satxini o'zgarishi suyuqlik ustunining bosimini o'zgarishiga sabab bo'ladi. $R = \rho g N$ (bu erda, N - suyuqlikning satxi, ρ - suyuqlikning zichligi, g - jismning erkin tushish tezligi). Suyuqlik ustunining bosimini difmanometr yordamida o'lchanadi.

- 1- asosiy idish (obekt);
- 2-ko'shimcha (nulga rostlovchi) idish;
- 3-difmanometr.

ishlatilgan tayanch so'z va iboralar.

1. Sarf - vaqt birligida o'tayotgan modda miqdori.
2. Miqdor hisoblagich (miqdor o'lchagich) - modda miqdorini o'lchovchi asbob.
3. Turbina - vintli parrak bo'lib, sarf miqdorini o'lchaydi.
4. Diafragma - sarf o'lchash uchun mo'ljallangan o'rtasida ma'lum o'lchamdagi teshikli disk.
5. Pьezometrik trubka - xavochiqaruvchi trubka.
6. Rotametr - o'zgarmas bosimlar farqiga asoslanib sarf o'lchaydigan qalqovichli shisha asbob.
7. Induksion sarf o'lchagich - elektr o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan materiallarni sarfini o'lchashga mo'ljallangan asbob.
8. Qalqovich - satx o'lchashda ishlatiladigan suzgich.
9. Hidrostatik satx o'lchagich - suyuqlik bosimini o'zgarishiga asoslangan satxni o'lchash usullari.
10. Elektr satx o'lchagichlar - muxitning elektr xususiyatlaridan foydalanib satxni o'lchash.
11. Transformator - kuchlanishni o'zgartiradigan asbob. (chizmasi).
12. Izolyator - elektr ta'siridansaqlovchi qurilma.

Nazoratsavollari:

1. Sarf o'lchovchischetchiklar.

2. Sarf to'g'risida informatsiya olish usullari.
3. O'zgaruvchan bosim farqi orqali sarf o'lchash.
4. O'zgaruvchan bosim farqi orqali bosim o'lchash.
5. O'zgaruvchan satx yordamida bosim o'lchash.
6. Induktsionsarfo'lchagichlar.
7. Satx o'lchashturlari.
8. Hidrostatiksatx o'lchagichlar.
9. Qalqovuchlisatx o'lchagichlar.
10. Elektriksatx o'lchagichlar.
11. Radioizotopsatx o'lchagichlar.

Ma'ruza5.

Miqdor va sarf haqida informatsiya olishmavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi (2 soat).


Modda miqdorini o'lchovchi asbobni miqdor o'lchagich (schetchik) deb ataladi.

Modda sarfi deb, ma'lum vaqt ichida o'tayapgan modda miqdorini o'sha vaqt oraligiga nisbatiga aytiladi (ya'ni vaqt birligida o'tgan modda miqdori).

Sarf xajmli va massali bo'ladilar (m^3/sek , kg/sek).

Sarf to'g'risidagi ma'lumotni miqdor o'lchagich orqali olinadi. U quyidagilarga bo'linadi: gazli, elektrik va suv miqdor o'lchagichlari.


Miqdor haqida axborot olish.



Rasm-27.


Suyuqlik va gaz uchun parrakli o'lchagichlar qo'llaniladi.

Bumiqdori o'lchagichlarning parragi oqim tezligiga proporsional ravishda aylanadi, ya'ni $G=f(n)$, n -aylanishlar soni. Ularda parrakning aylanishlar soniga qarab miqdor to'g'risida ma'lumot olinadi (rasm-27, rasm 258).



Rasm-28.

Xajm miqdori o'lchagichlarda (rasm-29), yoysimon g'ildiraklar jufti aylanganda suyuqlikning ma'lum hajmi ajratiladi. Har bir aylanishda 4-xajm ajratiladi. G'ildirak aylanish soniga qarab, suyuqlik miqdori o'lchanadi. Bumiqdori o'lchagichlar 1,6 Mpa bosimgacha sharoitda ishlashga mo'ljallangan.



Rasm29.

Sarflahqida axborot olish

Ishlabchiqarishda sarfto'g'risida axborot olish uchun quyidagi o'lchash usullari qo'llaniladi:

1. Bosimlar farqio'zgaruvchalar sarfto'lgan hagichlar;
2. Bosimlar farqio'zgar massalar sarfto'lgan hagichlar;
3. Satx o'zgarishi bo'yicha sarfto'lgan hagichlar;
4. Elektromagnit sarfto'lgan hagichlar;

Bosimlar farqio'zgaruvchalar sarfto'lgan hagichlar ishlash printsipti raytirish mo'lamasida potentsial energiya niqis mankinetika energiyaga aylanishi sababli xosil bo'layotgan bosimlar farqini sarfga bog'liqlavishda o'zgarishiga asoslangan. YA'ni, diafragma dano'tayotgan suyuqlik oqimining diafragmadan oldingi va keyingi bosimi qiymatlarini farqio'zgarish to'g'risidagi axborotni olishga asoslangan. R_1' va R_2' qiymatlari orasidagi farq sarfto'lgan hagich bilan o'zgarib turadi.


$$G_x = \alpha \cdot S_0 \sqrt{\frac{2(P_1' - P_2')}{\rho}}, \text{ (m}^2/\text{s)}.$$

Bu erda, G_x -hajmiysarf, α -sarfkoeffitsienti, ko'ndalang kesim S_0 , S_1 va oqim tezligi V_0 , V_1 ga bog'liq.

$$Q_m = \alpha \cdot S_0 \sqrt{2 \cdot \rho \cdot (P_1' - P_2')}$$


Q_m -massaviysarf

Quyida sarfto'lgan haganayotgan muxitga oqimda normal kamerali diafragma ni o'rnatilishi va bosimning o'zgarish sxemalarini keltirilgan (rasm-30).




Rasm-30.

Bosimlar farqio`zgarmassarfo`lchagichlar - rotametr larning ishlashi



Rasm-31.




Rasm-32.

qalqovich balandligini o`zgarish bilan o`tish yuzasini o`zgarishi hisobiga  $R_1$  va  $R_2$  bosimlar farqio`zgarmas xolatga kelib ($P_1 - P_2 = \text{const}$), qalqovich gata`sir qilayotgan kuchlarni tenglashishiga asoslangan. SHusabliqalqovich muallaqturib qoladivauo`lchanayotgansarfgamos xolatni egallaydi. Qalqovich xolatibo`yichasarfaniqlanadi.


Kuyidajoyidao`lchashgamo`ljallangan shisha rotametr (rasm-61) vasarf to`g`risidagima`lumotnimasofagauzatishgamo`ljallangan rotametr (rasm-62) sxemalarikeltirilgan.

Darchali - satxo`zgarishibo`yichasarf o`lchagichlar (melevoy rasxodomer)
ishlash printsiptidishdagito`siqtir qishdanoqibo`tayotgansuyuqliksatxinisarf gabog`li qravishdao`zgarishiga asoslangan.



Rasm-33.

Darchadan o'tayotgan suyuqlik satxi sarfgabog'liq o'zgaradi. Suyuqlik



Rasm-34.

satxiȓezometrik satx o'lhagich yordamida o'lchanadi (rasm-33). P̑ezometrik trubka 1 dagi bosim suyuqlik ustuni bosimi bilan bir xil bo'ladi ($P=H \cdot \rho \cdot g$). Bu bosim differentsial manometr 3 yordamida o'lchanadi va u sarfga to'g'riproportsional bo'ladi.

Elektromagnit sarf o'lhagichlarning ishlashi trubadan o'tayotgan elektr o'tkazuvchan suyuqlikda tashqi magnit maydoni ta'sirida induktivlanadigan elektr yurituvchi kuchni (EYUK) o'lchashgaasoslangan (rasm-64).

Bu usul elektr o'tkazuvchan muxitlarni sarfini o'lchashda ishlatiladi. Muxit, o'zgaras magnit qutblari orasidajoylashgan dielektrik materialdan yasalgan

truba orqali o'tkaziladi. Sarf o'zgarishi bilan o'lchanayotgan EYUK qiymati o'zgaradi, ya'ni $E=f(G)$.

$$E = -B \cdot d \cdot V$$


Bu erda, V -magnit induksiya;

d - trubadimetri;

V -oqimning o'rtacha tezligi.

Tezlik bosim kuchi orqali o'lchanadigan sarf o'lchagich:

Bu sarf o'lchagichlarda sarfni oqimning dinamik bosimi (P_v) bo'yicha aniqlanadi (rasm-34).



Rasm-34.

Ma`ruza6.
O`lchov informatsiyasini masofaga uzatish uchun standart
signallarga aylantirish tizimi mavzusidagi ma'ruza mashg`ulotining
texnologik xaritasi
(2 soat).

Signal o`zgartirgichlar va ko`rsatkichlar to`g`risidagi axborotni masofaga o`zlash tizimlari;

Kuchni kompensatsiyalashga asoslangan elektr signal o`zgartirgichlar;

Siljishni kompensatsiyalashga asoslangan elektr signal o`zgartirgichlar;


Pnevmatik signal o`zgartirgichlar;

Tizimlararo va normallovchi signal o`zgartirgichlar.

Texnologik jarayonlarni boshqarishda, odatda o`lchanayotgan kattalikni masofaga o`zlash va masofadan turib texnologik parametrlar to`g`risida axborot olib turish kerak bo`ladi. Buning uchun o`lchanayotgan masofaga o`zlashga qo`lay signalga o`zgartiriladi. Elektr, pnevmatik va gidravlik signal o`zgartirgichlar mavjud bo`lib, odatda ularda kuchni kompensatsiyalashga asoslangan va siljishni (chiziqli va aylanma siljishini) kompensatsiyalashga asoslangan signal o`zgartirgichlarga bo`linadi. Bu signal o`zgartirgichlarni chiqish signallari unifikatsiyalangan bo`lib, elektr signal o`zgartirgichlarning chiqish signallari 0-5 mA, 0-20 mA, 4-20 mA, 0-10 V va pnevmatik signal o`zgartirgichlarning chiqish signali 0,02-0,1 MPa chegarada o`zgaradi.

Kuchni kompensatsiyalashga asoslangan elektr signal o`zgartirgichlar

Bu signal o`zgartirgichlarning ishlashi, o`lchanayotgan parametr qiymatiga proportsional bo`lgan kuchni, chiqish signalidan hosil bo`lgan kuch bilan kompensatsiyalashga asoslangan. Uning soddalashtirilgan elektr sxemasi 35-rasmda keltirilgan.



Rasm-35.

O`lchanayotgan kattalik sezgir elementda (1) ma`lum F kuchga aylantiriladi va 2-rychagga ta`sir qiladi. Bu kuch ta`sirida rychag

o`qatrofidaburiladi. Ry chagning burilishi rolik 3 orqali ry chagga va lentali o`zatgich orqali kompensatsion ry chag 6-gaberiladi. Bu ry chagga differentsial transformatorli muvozanat indikator 7 ning uzagi va magnitoelektrik kuch mexanizmi o`ramlari o`rnatilgan. Uzak 7 siljishi transformatorning 9 ning bir-biriga qarma-qarshi o`lagan ikkilamchi o`ramlarida hosil bo`layotgan o`zgaruvchi tokni qiymatini o`zgarishiga sabab bo`ladi.


Bu signal EKda kuchaytirilib, o`zgarmas tokga aylantirilib, ikkilamchi o`lchov asbobi ga yuboriladi. Bir vaqtning o`zida bu signal magnitoelektrik kuch mexanizmi o`ramlaridan ham o`tadi.

O`ramdan 8 o`tayotgan tok hosil qilayotgan magnet maydonining o`zgarmas magnet 11 maydoni bilan o`zaro ta`siri natijasida ry chag 6 ga ta`sir qilayotgan kuch, o`lchanayotgan F kuchni kompensatsiyalaydi. Bu vaqtda chiqish signali (odatda 0-5 mA yoki 0-20 mA) o`lchanayotgan parametrga proportsional bo`ladi.

Siljishni kompensatsiyalashga asoslangan elektr signal o`zgartirgichlar

Bu signal o`zgartirgichlarga differentsial-transformatorli (chiziqli siljishni), selsenli va ferrodinamik (aylanma siljishni) signal o`zgartirgichlar kiradi.

Differentsial transformatorli signal o`zgartirgichlarda birlamchi asbobi uzagini siljishni ikkilamchi o`lchov asbobi uzagini siljishi bilan kompensatsiyalanadi.



Rasm – 36.

Bu elektr sxemada (rasm-36) birlamchi o`ramlar ketma-ket ulangan bo`lib, o`zgaruvchan tok manboida elektron kuchaytirgichning transformatori orqali ulangan bo`ladi. Ikkilamchi uramlar bir-biriga yo`naltirilib, qarama-qarshi ulangan bo`lib, chiqish signali elektron kuchaytirgichga beriladi.

Faraz qilaylik, o`ramlar o`rtaxolatda turibdi, unda

$$\Delta E_1 = e_1 - e_2 = 0$$

$$\Delta E_2 = e_3 - e_4 = 0$$

$$\Delta E = \Delta E_1 - \Delta E_2 = 0$$

Agar birlamchi asbob o'zagi parametr o'zgarishi bilan ma'lum masofaga siljisa, unda:


$\Delta E_1 \neq 0$, ya'ni $\Delta E_1 = e_1 - e_2$ bo'ladi.

Bunda, $\Delta E = \Delta E_1 - \Delta E_2 \neq 0$.

Bu signal elektron kuchaytirgichga (EK) berilib, unda kuchlanishi vaquvvati bo'yicha kuchaytiriladi va reversiv dvigatel (RD) boshqarish o'ramigaberiladi. Reversiv dvigatel rotori aylanaboshlaydi. Rotor kinematik ravishda lekaloko'rinishidagi disk bilan ulanganligi sababli uni aylantiradi. Diskning aylanishi ikkilamchi asbobdagi o'zakning siljishigaolib keladi. Siljish $\Delta E_2 = \Delta E_1$ bulgunchadavom etadi. YA'ni, o'zak siljishi bilan $\Delta E_2 = e_3 - e_4$ o'zgarishi $\Delta E = e_1 - e_2$ teng bo'ladi, bunda yana, $\Delta E = \Delta E_1 - \Delta E_2 = 0$ bo'ladi. Bunda RD boshqarish o'ramidan o'tayotgan tok nulgga teng bo'ladi. Har gal parametr o'zgarishni birlamchi asbob o'zagini siljishigaolib keladi vabu siljishi sababbo'lgan balans bo'zilishini ikkilamchi asbob o'zagining siljishi yordamida yana tiklanadi.

Pnevmatik signal o'zgartirgichlar


Pnevmatik signal o'zgartirgichlarning asosiyelementi bo'lib soplo-to'siq (zaslonka) elementi hisoblanadi (rasm-37).



Rasm – 37.

R

- 1 - trubka;
- 2 – o'zgarimas kesim yuzali drossel;
- 3 – soplo;
- 4 – to'siq (zaslonka);
- 5 – manometr.




Rasm – 38. ΔX

Bu elementda (rasm -76) soplo 3 va to'siq 4 orasidagi masofaning (ΔX) o'zgarishi drossellar orasidagi bo'shlik bosimning o'zgarishiga sababbo'ladi. Bosimning o'zgarish qonuniyati – rasmda keltirilgan. YA'ni ΔX kamayishi bilan drossellar orasidagi kameradagi bosim ortibboradi. Odatda shu bog'liqlikdan pnevmatik signal o'zgartirgichlarda foydalaniladi.

Kuchni kompensatsiya qilishgaasoslangan pnevmatik signal o'zgartirgich

Sezgir elementda (rasm-39) kuchga aylantirilgan o'lchanayotgan kattalik, 2 ga ta'sir etadi. Bunda soplo-to'siqorasidagi ΔX masofa o'zgarib, ikki drossel orasidagi bosim o'zgaradi. Bu signal aks ta'sir silfoniga (6) ham berilib, undagi bosimning o'zgarishiga, ya'ni silfon tubidahosil bo'layotgan kuchning o'zgarishiga sabab bo'ladi va oraliq 7 orqali 2 ga ta'sir qiladi. Bu ta'sir parametrning o'zgarishi sababli 2 ga ta'sir qilayotganda F kuchni kompensatsiya qilmaguncha o'zgarib boradi. Kuchlar muvozanatlanganda signal o'zgartirgich chiqishidagi siqilgan havobosimining qiymati o'lchanayotgan parametr qiymatiga proportsional qiymatni egallaydi. Chiqish signalining unifikatsiyalangan xolati 0,02-0,1 MPa diapazonda o'zgaradi.



Rasm – 39.


Tizimlararo va normallovchi signal o'zgartirgichlar

Boshqarish tizimlaridagi har xil vositalar orasida axborot almashish unifikatsiyalangan signallar yordamida amalga oshiriladi. TjABT yaratishda axborotlarni qabul qilib olishda tizimlararo va normallovchi signal o'zgartirgichlar yordamida amalga oshiriladi. Bu signal o'zgartirgichlar unifikatsiyalangan elektr signallarini pnevmatik signalga aylantirib berishga mo'ljallangan bo'ladi. Bu signal o'zgartirgichlarni pnevmoelektrok signal o'zgartirgichlar (PESO) va elektropnevmatik signal o'zgartirgichlar (EPSO) deyiladi. EPP va EPP-M elektropnevmatik signal o'zgartirgichlar va PE-55m va PPE-2 pnevmoelektrik signal o'zgartirgichlar hozirgi vaqtda ishlab chiqarishda ishlatilmoqda.

Elektropnevmatik signal o'zgartirgichlar (EPP)

Bu o'zgartirgichlar yordamida 0-5 mA (0-20mA) diapazonda o'zgaruvchi unifikatsiyalangan elektr signalni pnevmatik signalga aylantiriladi.

Bu o'zgartirgichda (rasm-78) kirish elektr signali magnit elektrik mexanizmning (6) uyg'otuvchi o'rami (7) orqali o'tish jarayonida, hosil bo'layotgan magnit maydoni, ferromagnitdan tayyorlangan yakorga ta'sir etib, uni siljitadi. Bu siljish natijasida 2 burilish soplo va to'siqorasidagi masofa o'zgartirib, pnevmokuchaytirgichchiqishidagi bosimni o'zgarishiga sababbo'ladi. Bir vaqtning o'zidabu chiqish signali aks ta'sir silfonigaham berilib, uning ta'sirida 2 burilish tizimi muvozanatlanadi. Tizim muvozanatlangandachiqish pnevmatik signali kirish elektr signaligaproportsional qiymatni egallaydi.



Rasm-78.

Pnevmoelektrik signal o'zgartirgichlarda unifikatsiyalangan pnevmatik signal (0,02-0,1 MPa) analogli elektr signalga (0-5 mA, 0-20 mA) aylantiriladi.

Normallovchi signal o'zgartirgichlar

Bu signal o'zgartirgichlari birlamchi o'lchagichlarning unifikatsiyalangan chiqish signallarini unifikatsiyalangan signallariga aylantirish uchun ishlatiladi. Masalan, haroratni qarshilik termometrlari bilan o'lchaganda, haroratning o'zgarishi o'tkazgichning elektr qarshiligini o'zgarishiga aylanadi va logometrlar va avtomatik muvozanat ko'priqlari yordamida o'lchanadi.

Zamonaviy boshqarish tizimlarida haroratning har bir vaqtdagi qiymati to'g'risidagi axborotni boshqaruvchi EHMLarga berib turish uchun bu chiqish signallari analogli elektr signaliga aylantirilishi kerak. SHu vazifani normallovchi signal o'zgartirgichlar PT-TS, SH-71 va SH-79 lar bajaradi. TermoEYUKni analog signaliga aylantirish uchun PT-TP, SH-72 va SH-78 lar ishlatiladi.

Xozirgi vaqtga kelib texnologik jarayonlarni boshqarishda zamonaviy boshqaruvchi EHMLarni qo'llanishi o'lchov asboblari sifatiga, ularning chiqish signallariga qo'yayotgan talablarini o'zgartirdi. Ma'lumki, boshqaruvchi EHMLar axborotni faqat son-raqam signali ko'rinishida qabul qiladi va rostlash ta'sir signallarini ham shu signal ko'rinishida chiqaradi. Shuning uchun jaxonning old firmalari (SIEMENS va HONEYWELL) xozir son-raqam signalli

birlamchi o'lichagichlarni ishlabchiqarish muammolari ustida ishlamoqdalar va ma'lum natijalarga erishdilar. Bu signallarni masofaga uzatishda ham ma'lum yangiliklar mavjud. Axborotni bog'lovchi simlar orqali ikkilamchi asboblarga uzatish bilan birga radioto'lqinli aloqa orqali uzatish ham qo'llanilaboshlandi.

Ishlatilgan tayanch so'z va iboralar

1. Signal o'zgartirgich – o'lchanayotgan ko'rsatkich to'g'risidagi axborotni masofaga o'zlashga qulay bo'lgan signalga aylantiruvchi moslama;
2. Unifikatsiyalangan pnevmatik signal – 0,02-0,1 MPa chegarada o'zgaruvchi pnevmatik signal;
3. Unifikatsiyalangan elektr signali – 0-5 ma, 4-20 ma, 0-10 V chegarada o'zgaruvchi elektr signallar;
4. Kuchni kompensatsiyalashga asoslangan signali o'zgartirgich – o'lchanayotgan parametrga proportsional bo'lgan kuchni kompensatsiyalash yo'li unifikatsiyalangan signalga o'zlashga mo'ljallangan moslama;
5. Siljishni kompensatsiyalashga asoslangan signali o'zgartirgich – o'lchanayotgan parametrga proportsional bo'lgan siljishni kompensatsiyalash yo'li unifikatsiyalangan signalga o'zlashga mo'ljallangan moslama;
6. Differentsial transformatorli muvozanat indikator – ikkilamchi o'ramlari bir-biriga qarshi ulangan muvozanat indikator;
7. Magnitoelektrik kuch mexanizmi – mexanizm g'altagidan o'tayotgan tok qiymatiga qarab aks ta'sir kuchini ishlabchiqaradigan moslama;
8. Differentsial transformatorli signal o'zgartirgich – ikkilamchi o'ramlari bir-biriga qarshi ulangan siljishni kompensatsiyalovchi signal o'zgartirgich;
9. Soplo – to'siq elementi – siqilgan havochiqadigan element (soplo) vahavoning chiqishiga qarshilik qiladigan element (to'siq);
10. Aks ta'sir silifoni – signal o'zgartirgich chiqish signaliga proportsional kuch bilan, silifon tubi orqali jamlovchi ruychagga aks ta'sir ko'rsatuvchi element;
11. Tizimlararo signal o'zgartirgichlar – elektr signallari pnevmatik signalga, pnevmatik signallari elektr signalga o'zlashga mo'ljallangan o'zgartirgichlar;
12. Elektropnevmatik signal o'zgartirgichlar – elektr signallarini pnevmatik signallarga aylantirib beruvchi o'zgartirgich;
13. Pnevmoelektrik signal o'zgartirgich – pnevmatik signalni elektr signalga aylantiruvchi beruvchi o'zgartirgich;
14. Normallovchi signal o'zgartirgich – parametr – to'g'risidagi axborotni analog elektr signalga aylantirib beruvchi o'zgartirgich.

Nazoratsavollari:

1. Texnologik parametrlar to'g'risidagi axborotni masofaga o'zlash tizimlar to'g'risida;
2. Kuchni kompensatsiyalashga asoslangan elektr signal o'zgartirgich ishlashi;
3. Siljishni kompensatsiyalashga asoslangan elektr signal o'zgartirgich ishlashi;
4. Pnevmatik signal o'zgartirgich;
5. Tizimlararo signal o'zgartirgich;
6. Normallovchi signal o'zgartirgich.